



## AKTYORNING KASBIY MAHORATI VA OBRAZ YARATISHI

*Uzoqov Akbarjon Axrorovich*

*Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi san'ati) mutaxassisligi 2-bosqich magistratura talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aktyorning kasbiy mahorati va uni rivoglantirish borasidagi izlanishi shuningdek talaba yoshlarning kasbiy mahoratni o'zlashtirishga oid bilimlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlari:** aktyor, mahorat, ko'nikma, tasavvur, tajriba, tomoshabin, dunyoqarash, obraz, qobiliyat

Keng jamoatchilik ongida teatr san'atiga qiziqish uyg'otish masalasi bugungi kunda barcha teatr ijodkorlari oldida turgan yeng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Teatr san'atini yesa dramaturgiyasiz tasavvur qila olmaymiz. Aktyor dramaturg fikrini tomoshabinga yetkazadi, u bilan muloqotda bo'ladi, uni o'ylashga, fikr yuritishga undaydi, rejissyor yechimini tomoshabinga o'zidan o'tkazib yetkazib beradigan, bazan zavq, bazida esa kuchli emotsiya beradigan bu aktyordir. Aktyor sahnada bir necha soat davomida qahramonining butun umrini, kechmishini yashab o'tadi, rivojlanadi, baxtni va baxtsizlikni his qiladi, birga qariydi. U o'z qahramonining ruhida kechayotgan ziddiyatlarni kuchli dramatik kechinmalar orqali ifoda qiladi. Teatrshunos olim, akademik Mamajon Raxmonov "O'zbek teatri tarixi" kitobida shunday yozadi: "Tabiiylik, temperament, chaqqonlik, jo'shqinlik, boy fantaziya, tasavvur, hozirjavoblik, zehning o'tkirligi – sanatkorlarning kuch manbai bo'lgan. Ular o'z o'yinlarida manoli so'z, erkin, plastik va aniq ritmik harakat, imo-ishora vositasi bilan tomosha maydonida kuchli kulki vaziyatini tug'dira olganlar".<sup>1</sup>K. Stanislavskiyning "Aktyorning o'z ustida ishlashi" kitobida aktyorlik mahorati haqida shunday ma'lumot beriladi: "Aktyorning hunarmandlarga xos nutqi va plastikasi, ko'r-ko'rona effektga, soxta olijanoblikka olib keladi, bulardan faqat teatrga xos bachkana go'zallik kelib

<sup>1</sup> Раҳмонов М. «Ўзбек театри тарихи». Тошкент, ЎзССР «Фан» нашриёти, 1968 й. 106-бет.



chiqadi. Shartli shtamp kechinmaning o'rnini bosolmaydi. Yana shunisi yomonki, shtamp yelimday yopishqoq, ajratib bo'lmaydi. U aktyorning ijodiga xuddi zangday yopishib oladi. Bir marta o'ziga yo'l topib oldimi, bas, borgan sari chuqurroq o'rnashadi va zo'rayadi, rolning hamma yerlarini va aktyorning butun tashqi tasviriy apparatlarini egallab olishga urinadi. Shtamp rolning jonli tuyg'ular bilan to'lmagan har qanday bo'sh yerlarini egallaydi va yerga mustahkam o'rnashib oladi. Bu ham yetmaganday, shtamp chinakam sezgidan oldin otilib chiqadi va uning yo'lini to'sib qo'yadi. Shuning uchun ham aktyor shtampdan o'zini saqlamog'i kerak. Yuqorida aytib o'tganlarimiz hatto qobiliyatli, organik ijod qilishga qodir bo'lgan aktyorlarga ham taalluqlidir. Hunarmand bo'lib qolgan aktyorlarning deyarli sahna faoliyati shtamlardan ustalik bilan foydalanishdan iboratdir. Bu shtamlarning ba'zi birlari chiroyli va qiziqarlidir, hatto tajribasiz tomoshabin aktyorning bunday o'yini mexanik o'yin ekanligini sezmay qoladi ham. Biroq aktyorlik shtamlari qanchalik mukammal bo'lmasin, ular o'zicha tomoshabinni hayajonlantira olmaydi. Buning uchun yana qandaydir hayajonni uyg'otuvchi qo'shimcha vosita bo'lishi kerak. Bunday uyg'otuvchi qo'shimcha vositalar alohida uslub bo'lib, ularni biz aktyorlik tuyg'usi deb ataymiz. Aktyorlik tuyg'usi sahnada rolni chinakam badiiy kechinma yo'li bilan tasvirlaydigan haqiqiy tuyg'u emas, ugavda a'zolarini sun'iy yo'l bilan qo'zg'atishdir. Masalan, mushtni qissak, badanimiz muskullarini sezilarli darajada qisqartiradi yoki tez-tez nafas olsak, o'zimizni juda kuchli jismoniy siqqlikka keltiramiz, bu esa ko'pincha tomosha zalida zo'r hayajonli temperamentning paydo bo'lishi sifatida qabul qilinadi. Qalb to'lqinisiz, mexanik ravishda sahnada u yoqdan bu yoqqa chopib yurish orqali hamma hayajonni ifodalash mumkin. Bu jismoniy qiziqqonlikka o'xshash holatni tasvirlaydi, xolos."<sup>2</sup> Aktyorlik san'ati haqida so'z ketsa, shu

<sup>2</sup> Станиславский К.С. «Актёрнинг ўз устида ишлаши» «Янги аср авлоди» Тошкент 2011 й.



zahoti turli fikrlar va qarashlar paydo bo'ladi. Qobiliyatli aktyorga hech qanday maktabning keragi yo'q, qobiliyatsiz aktyorga hech qanday maktab yordam berolmaydi. Bu fikrdan aktyorlik san'atiga o'qish shart emas, aktyor bo'lib tug'ilish kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Bo'lajak aktyorda qobiliyat bo'lishi kerakligi haqidagi fikrga nisbatan hech qanday e'tiroz bo'lishi mumkin emas.

Aktyorning har lahzasi harakatdan iborat. Boshni egish, qovoqni uyish yoki ochish, yuzda paydo bo'lgan tabassum, hayratga ochilgan og'iz, ko'zoynakni ziyolinoma ushlab turgan panjalar yoki ikki yonga tushirib turilgan kaftlar, aktyorning muhim nazar solib turgan paytidagi norozilik yoki mehrini ifodalovchi ko'zlar - bularning barchasi harakatda bo'ladi, tinch holat ular uchun begona. Aktyor kasbi ideal kasb bo'lishi uchun, avvalo, uning o'ziga xos xususiyatlariga, kasbiy dolzarb jihatlariga erishgan bo'lishingiz kerak. Ammo, bu talabning biroz mushkuloti mavjud, joiz bo'lsa qarama-qarshi tomonlari ham bor. Masalan, haddan tashqari loyaqdlik va kasbga pedagogning qiziqтира olmasligi. Aktyorlik hissiy kasb deya e'tirof etilishi bejis emas. Chunki teatr sahnasida hayotning shiddatli sur'atini uch yoki to'rt yoki undan ortiq pardalar bilan yetkazib berish oson emas. Aktyorlik mahoratining yana bir o'ziga xos xususiyati u kasbiy tajriba va ko'nikmalarni talab qiladi, ularni o'rganishni taqozo etadi. Aktyor yorug'likni sezadigan plastinkaga o'xshab o'z xulq-atvoridagi kichik o'zgarishlarni ham yorita bilishi kerak. Yangi ta'sir qiluvchi, qo'zg'atuvchilardan foydalanmasdan, sahnada nima ro'y berayotganligini ko'rmasdan, bilmasdan, eshitmasdan, tabiiy intonatsiyalarni saqlab qolmasdan turib jonli obrazni yaratish mumkin emas.

Aktyorlik hissiy kasb deya e'tirof etilishi bejis emas. Chunki teatr sahnasida hayotning shiddatli sur'atini uch yoki to'rt yoki undan ortiq pardalar bilan yetkazib berish oson emas. Aktyorlik mahoratining yana bir o'ziga xos xususiyati u kasbiy tajriba va ko'nikmalarni talab qiladi, ularni o'rganishni taqozo etadi. Shuning uchun ham aktyorlik mahorati qancha yuqori bo'lmasin, yosh mutaxassis albatta



san'at yo'nalishida tahsil olishi shartdir. Bizga ma'lum bo'lgani kabi, har bir soha ilmiy negizda, amaliy ko'nikma negizida o'ziga xos tarzda shakllanadi. Ayniqsa, aktyorlik mahoratini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Aktyor - talaba eng avvalo kuchli, talabchan, nazari o'tkir, boladagi aktyorlik san'atiga moyillikni tekshirib, o'ziga xoslik va o'zgachalik jihatlarini anglab baho bera oluvchi donishmand ustozlar ko'rigidan o'tishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYORLAR:**

1. М. Раҳмонов “Ўзбекистон театри тарихи” Ўз ССР “Фан” нашриёти Тошкент 1968 й, 106 б.
2. М. Раҳмонов, М. Тўлахўжаева, И. Мухторов “Ўзбек миллий академик драма театри тарихи” “Маданият ишлари вазирлиги истиқболни белгилаш, услубият ва ахборот республика маркази” Тошкент 2003, 69,140 б.
3. К. С. Станиславский “Актёрнинг ўз устида ишлаши” “Янги аср авлоди” Тошкент 2010 й, 43 б.